



XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA JORIY AKTIVLAR HISOBINI XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQLASHTIRISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMI

Safarov Alisher

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

ORCID: 0009-0003-5890-3982

alilionsafarov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada xo'jalik yurituvchi subyektlarda joriy aktivlar hisobini yuritish jarayonida xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (XMHS) talablarini joriy etish bo'yicha mavjud muammolar, ularning kelib chiqish sabablari hamda takomillashtirish yo'nalishlari o'rganilgan. Amaldagi me'yoriy tartibotlar, hisob siyosati, baholash usullari va xalqaro standartlar talablari solishtirildi. Tadqiqot natijasida joriy aktivlar hisobi shaffofligini oshirish, baholashning aniq va ishonchli usullaridan foydalanish hamda moliyaviy natijalarning haqqoniy aks ettirilishini ta'minlash bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: joriy aktivlar, xalqaro standartlar, zaxiralar, debitorlik qarzlari, naqd pul, moliyaviy hisobot, baholash usullari.

ПРОБЛЕМЫ СОГЛАСОВАНИЯ УЧЕТА ТЕКУЩИХ АКТИВОВ В ЭКОНОМИЧЕСКИХ СУБЪЕКТАХ С МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ И ИХ РЕШЕНИЯ

Сафаров Алишер

Денауский институт предпринимательства и педагогики

Аннотация. В данной статье исследуются существующие проблемы внедрения требований Международных стандартов финансовой отчетности (МСФО) в процессе ведения учёта оборотных активов у хозяйствующих субъектов, причины их возникновения, а также направления их совершенствования. Проведено сравнение действующих нормативных положений, учётной политики, методов оценки и требований международных стандартов. В результате исследования разработаны предложения, направленные на повышение прозрачности учёта оборотных активов, применение точных и надёжных методов оценки и обеспечение достоверного отражения финансовых результатов.

Ключевые слова: оборотные активы, международные стандарты, запасы, дебиторская задолженность, денежные средства, финансовая отчётность, методы оценки.

PROBLEMS IN HARMONIZING CURRENT ASSETS ACCOUNTING IN ECONOMIC ENTITIES WITH INTERNATIONAL STANDARDS AND THEIR SOLUTIONS

Safarov Alisher

Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

Abstract. This article examines the existing problems related to the implementation of the requirements of International Financial Reporting Standards (IFRS) in the process of accounting for current assets of business entities, the causes of these problems, and the directions for their improvement. The study compares current regulatory frameworks, accounting policies, valuation methods, and the requirements of international standards. As a result of the research, proposals were developed to enhance the transparency of current assets accounting, apply accurate and reliable valuation methods, and ensure the fair presentation of financial results.

Keywords: current assets, international standards, inventories, accounts receivable, cash, financial reporting, valuation methods.

Kirish.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligi va qisqa muddatli to'lov qobiliyati, avvalo, joriy aktivlarni boshqarish tizimining qay darajada to'g'ri yo'lga qo'yilganiga bog'liq. Joriy aktivlar – korxonaning bir yillik yoki undan qisqa muddatli ishlab chiqarish siklida foydalaniladigan, oson pulga aylantiriladigan resurslar bo'lib, ularning hisobini yuritish xalqaro standartlar (asosan IFRS – International Financial Reporting Standards) talablariga muvofiq bo'lishi bugungi kunda muhim o'rin egallaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevralda «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4611-son Qarori (2020) qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishni tezlashtirish asosida xalqaro investorlarni, ularning talablariga mos ravishda kerakli ma'lumotlar bilan ta'minlash va xalqaro bozorga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, moliyaviy hisobotni ixtiyoriy ravishda MHXSga muvofiq tayyorlaydigan xo'jalik yurituvchi subyektlarini buxgalteriya hisobining milliy standartlari bo'yicha moliyaviy hisobot taqdim etishdan ozod etilishligi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024 yil 8 oktyabrda «Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to'g'risida»gi 181-son buyrug'iga asosan NIZOM (2024) qabul qilindi. Ushbu nizomga muvofiq, moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot tarkibi va mazmunini, moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga uyg'unlashtirilgan.

Buning uchun esa Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari MHXSlari va buxgalteriya hisobi milliy standartlari BHMSlari o'rtasidagi tafovutlarga barham berish kerak. Ularni imkon qadar muvofiqlashtirish kerak. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)larda mavjud bo'lgan, lekin buxgalteriya hisobi milliy standartlari (BHMS)lar tarkibida bo'lmagan standartlarni ham ishlab chiqish kerak. Standartlarda aniq ko'rsatilmagan holatlar bo'yicha qo'shimcha izohlar va talqinlar ishlab chiqishni yo'lga qo'yish kerak. Buxgalteriya hisobi bo'yicha boshqa qonun osti meyoriy-huquqiy hujjatlarni, jumladan Nizomlar va qoidalarni ham standartlarga muvofiqlashtirish kerak. O'zbekistonda xalqaro standartlarga mos ravishda mukammal buxgalteriya hisobining milliy standartlari tizimi shakllanishi lozim.

Adabiyotlar sharhi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda joriy aktivlar hisobi bo'yicha xalqaro standartlarni joriy etishdagi mavjud muammolarni tahlil qilish birqancha mahalliy iqtisodchi olimlarning qarashlari va fikrlarini o'rganib chiqdik. Jumladan:

Dusmuratov va Mavlyanova (2023) o'z monografiyalarida joriy aktivlarning iqtisodiy mohiyatini chuqur tahlil qilib, ularni xalqaro standartlar asosida boshqarish zaruratini asoslab beradilar. Mualliflarning fikricha, joriy aktivlar hisobini IFRS talablari asosida tashkil etish "korxonalar moliyaviy barqarorligi va likvidligini haqqoniy baholash imkonini yaratadi". Ular ayniqsa NRV (Net Realizable Value) va ECL (Expected Credit Loss) kabi xalqaro baholash vositalarini mahalliy amaliyotga tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar beradilar.

Ibodullayevaning (2022) fikriga ko'ra, "joriy aktivlarni baholashda milliy yondashuv hali ham tannarx tamoyiliga suyanadi, holbuki IAS 2 talabi — tannarx yoki sof realizatsiya qiymatidan pastrog'i. Uning ta'kidlashicha, ko'plab korxonalarda zaxiralar bo'yicha NRVni aniqlash uchun zarur bo'lgan: bozor narxlarini monitoring qilish, sotish xarajatlarini aniq hisoblash, eskirgan zaxiralarni aniqlash kabi mexanizmlar to'liq shakllanmagan." Shu bois, u IFRS talqin va interpretasiyalarini amaliyotga tatbiq qilishni taklif qiladi.

Niyozovning (2023) tadqiqotlari ko'proq ishlab chiqarish korxonalari qaratilgan bo'lib, u joriy aktivlar bo'yicha asosiy muammo sifatida ombor xo'jaligining raqamlashtirilmaganini ko'rsatadi. Uning fikricha: "omborlarda skaner, QR-kod tizimi, avtomatik hisob dasturlari joriy etilmagani, hisobotlar qo'lda yuritilishi, real va buxgalteriya qoldiqlari mos kelmasligi, joriy aktivlarning ishonchli hisobini qiyinlashtiradi." U ERP tizimlari joriy etilganda IFRS talablariga

mos ravishda inventarizatsiya va zaxiralar baholanishi sezilarli darajada yaxshilanadi, deb hisoblaydi.

Xoltojiyevich (2025) moliyaviy aktivlarni MHXS asosida hisobga olish muammolarini tahlil qilib, ularni joriy aktivlar bilan uyg'unlashtirish zaruratini ko'rsatadi. Muallifning ta'kidlashicha, O'zbekistonda aktivlarning tan olinishi ko'pincha normativ hujjatlar bilan chegaralanib qolgan bo'lib, xalqaro standartlardagi "adolatli qiymat" metodologiyasi hali to'liq joriy etilmagan. U MHXSga o'tishda buxgalterlar malakasining yetishmasligi va raqamli hisobot infratuzilmasining sustligi asosiy muammo sifatida qayd etadi.

Sagdullaeva (2024) joriy aktivlarni boshqarishda iqtisodiy samaradorlik nazariyasiga suyanib, zaxiralar boshqaruvida: ortiqcha zaxira saqlash, hujjatsiz kirim-chiqimlar, bozor talabini noto'g'ri prognozlash, korxona xarajatlarini oshirishini ta'kidlaydi. U IFRS asosida zaxiralar harakatini aniq hujjatlashtirish va real baholash korxonaning moliyaviy barqarorligiga bevosita ta'sir qiladi, degan xulosaga keladi deb takidlaydilar.

Bizning fikrimizcha esa O'zbekistonda joriy aktivlar hisobini xalqaro standartlarga moslashtirishda asosiy to'siqlar: kadrlarning xalqaro standartlar bo'yicha yetarli bilimga ega emasligi, 1C, SAP, Oracle kabi dasturlarni noto'g'ri sozlash, zaxiralarning haqiqiy bahosini aniqlashda yuzaga keladigan sub'ektivlik.

Ushbu muammolarning asosiy yechimi — korxonalarni integratsiyalashgan axborot tizimlariga o'tkazish va IFRS bo'yicha muntazam o'qitishdadir deb hisoblaymiz.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot quyidagi ilmiy yondashuvlar asosida amalga oshirildi: Normativ-huquqiy tahlil, taqqoslama tahlil, amaliyotdagi holatlarni o'rganish, deduksiya va induksiya kabi metodlardan foydalanib, O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi me'yoriy hujjatlari xalqaro moliyaviy hisobot standartlari bilan solishtirildi. Zaxiralar (IFRS IAS 2), debitorlik qarzlar (IFRS 9), pul mablag'lari (IAS 7) bo'yicha mahalliy va xalqaro talablar o'rtasidagi farqlar o'rganildi. Korxonalarning moliyaviy hisobotlari tahlil qilinib, joriy aktivlar hisobida uchrayotgan kamchiliklar aniqlab chiqildi va takliflar berildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Tadqiqot ishimizda Xo'jalik yurituvchi subyektlarda joriy aktivlar hisobi bo'yicha xalqaro standartlarni joriy etishdagi mavjud muammolar tahlil qilindi va quyidagi natijalarga erishildi. Amaliyotga joriy qilingan O'zbekistonning milliy buxgalteriya standartlari va Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari o'rtasidagi asosiy farqlari va har bir standartning afzalliklarini keltirib o'tamiz:

IAS 2 (IFRS): zaxiralarni tannarx hamda sof realizatsiya qiymatidan NRV pastrog'i bo'yicha baholashni talab qiladi; NRV — kutilayotgan sotish narxi minus sotish yoki yakuniy ishlov xarajatlari. IAS 2 turli xarajatlarni (sotib olish, konvertatsiya, olib kelish xarajatlari) hisobga oladi va hisob-kitobda professional hukm talab etadi.

O'zbekistonning milliy BHMS (4-sonli): milliy qonunlar va BHMSlarda zaxiralar hisob-hisobining asosiy qoidalari, inventarizatsiya muddati va hujjatlashtirish tartiblari belgilangan; ular amaliyot uchun aniq qoidalar va uslubiyat beradi, lekin IFRS kabi keng talqin va professional hukm talablarini hamisha talab qilmaydi.

Hujjatlashtirish va ma'lumot talabi:

IFRS (IAS 2): NRV va zaxiralarni qayta baholash uchun xolis baho, hisoblanmalar va taxminlar hujjatlashtirilishini talab qiladi — hisoblashlar, bozor tahlillari va qarorlar uchun asoslarni yozma saqlash zarur. Bu kuchli hujjatlashtirish talab qiladi.

Milliy BHMS: amaliy jihatdan aniq shakllar va inventarizatsiya qoidalarini belgilaydi (masalan, yillik inventarizatsiya va hujjatlarning saqlanishi). Bu oddiy va nazorat uchun qulay, lekin IFRSdagi darajadagi baho va hujjatlashtirishni talab qilmasligi mumkin. Natijada: agar kirim-chiqim hujjatlari to'liq yuritilmasa — IFRS talablariga binoan NRV va zaxiralarni to'g'ri

baholash (va auditor tekshiruviga chidamli hujjat) qiyin bo'ladi; milliy standart esa ba'zan bu kamchilikni yengillashtiradi (lekin hisobotning xalqaro ishonchliligi kamayadi).

Inventarizatsiya (tezlik, chastota va protsedura)

IFRS: inventarizatsiya natijalari NRV va zaxiralarning real holatini aniqlash uchun muhim — ayniqsa yozib qo'yilgan yo'qotishlar, eskirgan zaxiralar va likvidatsiya ehtimoli kabi masalalarda. IAS 2 NRVni hisoblashda professional hukm va bozor ma'lumotlarini talab qiladi.

Milliy BHMS: O'zbekistonda zaxiralar inventarizatsiyasi bo'yicha qoidalar (masalan, kamida yillik inventarizatsiya) belgilangan; biroq amaliyotda tartib-qoidalar buzilsa, milliy standart ham real holatni qayd etishni kafolatlamaydi. Buning oqibatida: inventarizatsiya tartibi buzilganda IFRS talablarini bajarish (NRV tekshiruvi, qiymatni pasaytirish) amaliy jihatdan mushkul kechadi — bunday vaziyatlarda zaxiralar haddan ziyod yuqori ko'rsatilishi mumkin.

Raqamlashtirish va tizim talablari

IFRS: real-vaqt va izchillikni talab qilmaydi, lekin NRV, yozuvlar va qiymat o'zgarishlari uchun ishonchli ma'lumotlar zarur — bu ko'pincha ERP va raqamlashtirilgan ombor tizimlarini talab qiladi.

Milliy standartlar: odatda hujjat shakllari va qo'lda yoki oddiy dasturlar bilan yuritish imkonini beradi, ya'ni kichik korxonalar uchun qulay, lekin bu raqamlashtirish yetishmasligi holatlarida xatolarga olib keladi. Natijada esa omborda raqamlashtirish yetarli bo'lmasa, IFRS talablariga mos hujjatlashtirish va audit uchastkalarini ta'minlash qiyin — bunda milliy talablarga moslash osonroq bo'lishi mumkin, lekin bu uning investorlarga ko'rsatgan ishonchliligini pasaytiradi.

Har bir standartning afzalliklari

IFRS (IAS 2) — Afzalliklari

1. Shaffoflik va xalqaro solishtirish: NRV va pastrog'i printsipli investorlar uchun haqiqiy qiymatni ko'rsatadi.

2. Bozor asosli baholash: eskirish va yo'qotishlarni aniqlash imkonini beradi — bu pul oqimini realroq ko'rsatadi.

3. Kuchli hujjatlashtirish va ijtimoiy ishonch: qarorlar va baholar uchun yozma asos talab qiladi — auditga chidamli.

Milliy BHMS (NAS 4 va 4-sonli BHMS) — Afzalliklari

1. Amaliy va tartibli qoidalar: yillik inventarizatsiya va hujjat shakllari aniq belgilangan, kichik korxonalar uchun mos.

2. Yuridik va soliqqa oid moslik: milliy hisobot va soliqqa tortish talablariga mos keladi — soliqqa tortish va statistik hisobot uchun soddalashtirilgan.

Yuqoridagi ikkala standartlarning afzalliklari va kamchiliklarini ko'rib chiqib quyidagilarni tavsiya qilamiz:

➤ Kirim-chiqim hujjatlarini standart shaklda joriy etish — har bir ombor operatsiyasiga elektron/raqamli hujjat (SKU, lot raqami, sana, yetkazib beruvchi, miqdor, qiymat). Bu milliy talablarni ham qoplaydi va IFRS uchun zaruriy hujjat bazasini yaratadi.

➤ Inventarizatsiya protsedurasini qayta ko'rib chiqish — kamida yillik emas, mijoz va mahsulot xususiyatiga qarab (tez o'zgaruvchi tovarlar) kvartal yoki oylik qismlarni joriy etish; inventarizatsiya protokollarini yozma saqlash IFRS talablariga yordam beradi.

➤ NRV hisobini tizimga joylashtirish — har bir mahsulot uchun sotish narxi va sotish xarajatlari (transport, qadoqlash, komissiya) bo'yicha taxminlarni yozib boring; avtomatik ogohlantirishlar eskirish yoki $NRV < cost$ holati yuzaga kelganda.

➤ Raqamlashtirish (bosqichma-bosqich) — ombor/ERP modulini kichik bosqichlarda joriy qilish: avvalo kirim-chiqim (barcode), keyin lot/seriya, keyin NRV monitoring; boshqaruvni ma'lumotga asoslash buyurtma va eskirishni kamaytiradi.

➤ Xodimlarni o'qitish va ichki nazoratni kuchaytirish — IFRS tamoyillari, NRV hamda inventarizatsiya protseduralari bo'yicha treninglar; ichki nazorat va vakolatlar taqsimoti

Xulosa va takliflar.

Tadqiqotdan kelib chiqib xulosa qilib aytadigan bo'lsak, MHXSlarini joriy qilish davomiy amalga oshiriladigan ish bo'lib mamlakatimiz kompaniyalarining xalqaro darajaga chiqishida muhim vosita sifatida xizmat qiladi. MHXSlari hisobotlarning ob'ektivligi, haqqoniyligi va sifatini oshirishda eng muhim omil bo'lib xizmat qiladi. MHXSlarini jadal joriy qilish uchun fanlarning mazmunini to'liq MHXSlariga uyg'unlashtirishimiz, ilg'or xalqaro tajribalarni ommalashtirish, mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan professional institutlar faoliyatini kengaytirish, OTMlari bilan amaliyot o'rtasidagi hamkorlikni jadallashtirishimiz kerak, deb hisoblaymiz. Joriy aktivlar hisobi xalqaro standartlarga moslashtirilishi korxonalar moliyaviy hisobotlarining ishonchli, taqqoslanadigan va investorlar uchun jozibador bo'lishini ta'minlaydi. Zaxiralar, debitorlik qarzlari va pul mablag'lari bo'yicha xalqaro talablarga mos mexanizmlarni joriy etish zarur. Joriy aktivlar hisobini xalqaro standartlar asosida yuritish korxona to'g'ri moliyaviy natijaga erishish, investorlar uchun ishonchli va shaffof bo'lish, to'lov qobiliyatini yaxshilash, risklarni vaqtida aniqlash imkonini beradi. Ammo mavjud me'yoriy, uslubiy, texnik va malaka bilan bog'liq muammolar bu jarayonning to'liq yo'lga qo'yilishiga to'sqinlik qilmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun XMHS bo'yicha muntazam malaka oshirish kurslarini tashkil etish. Zamonaviy buxgalteriya dasturlaridan foydalanishni kengaytirish. Zaxiralar qiymatining pasayishi bo'yicha rezervlarni shakllantirish tartibini xalqaro standartlar asosida qayta ko'rib chiqish. Debitorlik qarzlarni kutilayotgan kredit yo'qotishlari modeli bo'yicha qayta tasniflash. Pul oqimlari hisobotini IAS 7 talablariga to'liq mos ravishda tuzish. Korxonalarda ichki audit tizimini kuchaytirish. Hisob siyosatini xalqaro talablarga to'liq moslashtirish kerak bo'ladi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/Reference:

Dusmuratov, R. D., & Mavlyanova, D. M. (2023). *Joriy aktivlar: buxgalteriya hisobi, tahlili va auditi*. Toshkent: TDIU.

Ibodullayeva S. (2022) "Tovar-moddiy zaxiralar hisobi va auditi", *In-Academy ilmiy jurnali*.

Niyozov D. (2023) "Provisions and contingent liabilities: IFRS talablari asosida hisobga olish". *International Finance & Accounting Journal*.

Nizom (2024) O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024 yil 8 oktyabrda «Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to'g'risida»gi 181-son buyrug'iga asosan NIZOMI <https://nrm.uz/contentf?doc=763794>

Qaror (2020) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevralda «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4611-son Qarori. <https://lex.uz/docs/4746047>

Sagdullaeva N.B. (2024) "Joriy aktivlar tushunchasining iqtisodiy mazmuni va mohiyati". *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, №4.

Xoltojiyevich, M. R. (2025). Moliyaviy aktivlarni MHXS asosida hisobga olishning ayrim masalalari. *International Journal of Research in Social Sciences*, 5(1).